

Arab tilidagi **فِي** va **بِ** predloglarining ilmiy tahlili (Mahmud Zamaxshariyning “Al-mufasssal fi-n-nahv” asari asosida)

Arab tili eng qadimiy va jozibador tillardan biri hisoblanadi. Uni o`rganish katta qiziqish va e`tibor talab etadi. Kishi bu tilni o`rgangan sayin, uning naqadar mukammal til ekanligini anglab yetaveradi. Ana shunday mukammallik va aniqlikda predloglarning o`rni beqiyos desak, mubolag`a bo`lmaydi.

Ma`lumki, arab tilining tarixi uzoq o`tmishga borib taqaladi. Shundan buyon bu til rivojlanishdadir. Biz tadqiqot obekti qilib olgan qadimiy manba Mahmud Zamaxshariyning “Al-mufasssal fi-n-nahv” asari asosida “harf” so`z turkumiga kiruvchi quyidagi ikki predlogning tahlilini amalga oshiramiz.

فِي predlogining ma`nolari.

“فِي” predlogi so`zlarga birikib, o`zbek tilidagi o`rin-payt kelishigining qo`shimchasi bo`lmish “-da” ma`nosini ifodalab keladi. Bu ko`makchi haqida muallif shunday deydi:

و"في" معناها الظرفية، كقولك: "زيد في أرضه"، و"الركض في الميدان"، ومنه "نظر في الكتاب"، و"سعى في الحاجة". وقولهم في قول الله تعالى: ﴿وَأَصْلَبْنَاكُمْ فِي جُزُوعِ النَّخْلِ﴾: إنها بمعنى "على" عمل على الظاهر، والحقيقة أنها على أصلها لتمكن المصلوب في الجزع تمكّن الكائن في الظرف فيه.¹

Zamaxshariyning **فِي** predlogi haqida bildirgan fikrlarini o`rganadigan bo`lsak, unda aytilishicha, **فِي** hol (o`rin-payt) ma`nosida keladi. Bunga misollar:

Imtihon ertalab <u>da</u> .	-	الْإِمْتِحَانُ فِي الصَّبَاحِ.
Zayd o`z yerid <u>a</u> .	-	زَيْدٌ فِي أَرْضِهِ.
Yugurish maydon <u>da</u> (bo`ladi).	-	الرَّكْضُ فِي الْمَيْدَانِ.
Kitobga qarad <u>i</u> .	-	نَظَرَ فِي الْكِتَابِ.
Hojatga erishd <u>i</u> .	-	سَعَى فِي الْحَاجَةِ.
Darsimni sinf <u>da</u> o`qidim.	-	قَرَأْتُ دَرْسِي فِي الْفَصْلِ.

¹. محمود الزمخشري. المفصل في النحو. مصر. 1987. ص. 1.

○ وَلَا صَلَّيْنَكُمْ فِي جُزُوعِ النَّخْلِ ○ - “Va, albatta, sizlarni xurmo tanasiga osurman.”²

Ushbu misol va fikrlardan koʻrish mumkinki, *predlogi* ism soʻz turkumidagi soʻzlar bilan bogʻlanib kelib, uning egallagan oʻrnini yoki paytini bildiradi. *زَيْدٌ فِي أَرْضِهِ* – Zayd oʻz yerida” misolida *koʻmakchisi* Zaydning qayerda ekanligini anglatib, uning oʻrnini koʻrsatib kelmoqda. *الْإِمْتِحَانُ فِي الصَّبَاحِ* - Imtihon ertalabda” misolida esa, *predlogi* ism soʻz turkumidagi soʻz bilan bogʻlanib kelib, uning paytini, vaqtini aniqlashda xizmat qilyapti. Yaʼni Imtihon ertalab, tongda boʻlib oʻtishi haqida xabar bermoqda.

Shuningdek, u feʼl turkumidagi soʻzlar bilan qoʻshilib, ish-harakatning amalga oshish joyini yoki paytini anglatishi mumkin. Masalan: *قَرَأْتُ دَرْسِي فِي الْفَصْلِ* – darsimni sinfda oʻqidim. Bu gapdagi oʻqish ish-harakati sinfda amalga oshirilishi *predlogi* orqali ifodalangan.

Ushbu aytilayotgan oʻrin-payt majoziy maʼnoda ham qoʻllanishi mumkin. Masalan: *فِي يَدِهِ دَارٌ* – uning qoʻlida uy bor. Yaʼni uning hovlisi, uyi bor maʼnosida kelgan. Aslida uy qoʻlga sigʻmaydi.

➤ *predlogining tahlili*

➤ *predlogi* bir nechta maʼnolarga ega boʻlib, uning birinchi maʼnolaridan biri oʻzbek tilidagi “bilan” maʼnosidir. Ushbu *predlogni* Mahmud Zamaxshariy oʻz asarida quyidagicha bayon etadi.

و"الباء" معناها الإصلاق، كقولك: "بِه دَاءٌ"، أي: التَّصَقَّ بِهِ، وَخَامَرَهُ، و"مَرَرْتُ بِهِ" وَارِدٌ عَلَى الْإِتْسَاعِ، وَالْمَعْنَى: التَّصَقَّ بِمَوْضِعٍ يَقْرُبُ مِنْهُ. وَيَدْخُلُهَا مَعْنَى الْإِسْتِعَانَةِ فِي نَحْوِ: "كَتَبْتُ بِالْقَلَمِ"، وَ"نَجَرْتُ بِالْقَدُومِ"، وَ"بِتَوْفِيقِ اللَّهِ حَجَّجْتُ"، وَ"بِفُلَانٍ أَصَبْتُ الْغُرْضَ" وَمَعْنَى الْمَصَاحِبَةِ فِي نَحْوِ: "خَرَجَ بَعَشِيرَتَهُ"، وَ"دَخَلَ عَلَيْهِ بِثِيَابِ السَّفَرِ"، وَ"اشْتَرَى الْفَرَسَ بِسَرَجِهِ وَلِجَامِهِ".³

Uning maʼnolaridan biri yondoshtirishdir. Masalan:

بِه دَاءٌ. - Unda kasallik bor. Yaʼni, u kasaldir.

مَرَرْتُ بِزَيْدٍ. - Zaydning oldidan oʻtdim.

Ish-harakatni biror vosita yordamida bajarilishini ifodalash uchun ishlatiladi:

كَتَبْتُ بِالْقَلَمِ. - Qalam bilan yozdim.

² Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “Tafsiri Hilol” Toho surasi, 121-oyat, 3-juz, Hilol nashr. –T.: 2014 591-bet

³ محمود الزمخشري. المفصل في النحو. مصر. 1987. ص. 285.

نَجَرْتُ بِالْقَدُومِ. - Randa bilan randaladim.

بتوفيق الله حجبت. - Allohning ko'magi bilan haj qildim.

بفلان أصبت الغرض. - Falonchi bilan maqsadga yetdim.

Ushbu misollarning birinchi gapidagi yozish ish-harakati ب predlogi yordamida qalam vositasi bilan amalga oshirilgan bo'lsa, ikkinchi gapdagi randalash ish-harakati randa orqali bajarilganligi ifodalanmoqda. Qolgan ikki misolda ham ب ko'makchisi fe'ldagi ish-harakatni vosita orqali amalga oshganligini ifodalab kelmoqda. "Allohning ko'magi bilan haj qildim" gapidan shuni tushunish mumkinki, agar Allohning ko'magi, yordami bo'lmaganida u haj qila olmas edi. Zero Alloh unga madad berdiki, hajni ado etdi yoki "falonchi bilan maqsadga yetdim" misolida ham, o'sha falonchi bo'lmaganida maqsadga yeta olmagan bo'lar edi.

Shuningdek, ب predlogi birgalikni ifodalash ma'nosida xizmat qilishi mumkin. Masalan:

خَرَجَ بِعَشِيرَتِهِ. - Rafiqasi bilan birga chiqdi.

دَخَلَ عَلَيْهِ بَثْيَابِ السَّفَرِ. - Uning oldiga safar libosida kirdi.

اشْتَرَى الْفَرَسَ بِسَرْجِهِ وَلِجَامِهِ. - Otni egar-jabdug'i bilan birga sotib oldi.

Olim ب predlogining yuqoridagi ma'nolarini keltirib, uning qo'shimcha xususiyatini alohida bayon etadi. U quyidagicha:

وتكون مزيدة في المنصوب، كقوله تعالى: ﴿وَلَا تُلْقُوا بِأَيْدِيكُمْ إِلَى التَّهْلُكَةِ﴾، وقوله: ﴿بِأَيْدِيكُمْ

الْمَقْتُولُونَ﴾

Ma'no anglatmaydigan, ortiqcha ko'makchi vazifasida ham keladi!

لَا تُلْقُوا بِأَيْدِيكُمْ إِلَى التَّهْلُكَةِ. (س. البقرة، 195)

O'zlaringizni o'z qo'llaringiz bilan tahlikaga tashlamang.

كَفَى بِاللَّهِ شَهِيدًا (س. الرعد 43)

Alloh yetarli guvohdir.

Ko'makchilar زَائِدَةٌ - "ortiqcha", "ma'no anglatmaydigan" deyilsa-da, aslida gapning biror bo'lagiga qo'shilib, o'sha bo'lak ma'nosini ta'kidlab keladi. (Shomila 235-238). Ko'makchi qo'shilayotgan so'z gapda qanday vazifani bajarishidan qat'iy nazar, qaratqich kelishigida deb hisoblanadi. Misol tariqasida

keltirilgan birinchi oyatdagi بِأَيْدِيكُمْ, ikkinchi oyatdagi بِاللّٰهِ soʻzlari qaratqich kelishigi shaklida boʻlsa ham بِأَيْدِيكُمْ soʻzi grammatik jihatdan vositasiz toʻldiruvchi (الْمَفْعُولُ بِهِ), بِاللّٰهِ soʻzi esa ega (الْفَاعِلُ) vazifasini bajarayapti. Har ikki soʻz faqat shakl jihatidan koʻmakchi taʼsirida qaratqich kelishigida deb hisoblanadi. Koʻmakchi gapning feʼliy jumlaning egasi va vositasiz toʻldiruvchiga birikib kelayotgani mazmunni taʼkidlash maqsadida orttirilgan koʻmakchi deb hisoblanadi.⁴

Yuqoridagi ilmiy tahlildan shuni xolosa qilish mumkinki, arab tilidagi baʼzi predloglar faqat birgina maʼnoda qoʻllansa, baʼzilari bir nechta maʼnolarda qoʻllanilishi mumkin. Mazkur ikki predlog xususidagi barcha holatlarni guvohi boʻldik. Ularni oʻz oʻrni toʻgʻri tarjima qilib, jumlalarda maqsadli foydalanish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Tafsiri Hilol”, Hilol nashr – T.: 2014
2. N. Mulasodiqova, H. Bobojonov. Nahvda yuzta omil. Toshkent Islom Universiteti. –T.: 2014.
3. محمود الزمخشري. المفصل في النحو. مصر. 1987
4. موفق الدين أبى البقاء، يعيش بن على بن يعيش الموصلي شرح المفصل للزمخشري جزء رابع دار الكتب العلمية، بيروت، سنة ٢٠٠١ ص

⁴ N. Mulasodiqova, H. Bobojonov. Nahvda yuzta omil. Toshkent Islom Universiteti. –T.: 2014. –B 24.